

ISSN 2181-7138

МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮ



Илимий-методикалық журнал

2023

1/3-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Нөкис



МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХҲЎЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Sayliyeva M. M. Jamiyat va shax rivojlantirishda milliy g'oya tamoyillari va mazmuni	160
Kenjayeva M. Sh. Milliy qadriyat tushunchasining mazmun va mohiyati	167
Xujaev M. I., Esanova K. I. Маҳмудхўжа Бехбудий жадид матуботи етакчиси	175
Axmadaliyeva M. Sh., Madraximov I. B. Milliy uyg'onish davri poetikasida yetakchi g'oya va obrazlar	182

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Imomberdiyev S. S. Matematika darslarida ekologik komponentdan foydalanishning ahamiyati	186
Қунназаров А. Қ. Информатика фанидан мултимедиали электрон ўқув қўлланма яратиш ва фойдаланиш методикаси	192
Tursinboeva Z. U., Ismoilova Z. T., Abdullayeva D. A. Differensiallarning taqribiy hisoblashlarga tatbig'i	198
Tursinboeva Z. U., Ismoilova Z. T., Ravshanova R. M. Tarmoqlararo balans munosabatlarining iqtisodiy masalalarga tadbirlari	202
Shomurodov N. A. Taqribiy hisoblashlarda differensial hisob va darajali qatordan foydalanish	207

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Eshchanova G. O., Durdiyeva M. O. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ijodiy-kreativ faolligini shakllantirish usullari	212
Ozodova B. Raqamli texnologiya-MTT da zamonaviy zaruriyat	217
Eshchanova G. O., Shamuratova S. Q. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv	223
Xo'jamberdiyeva Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zaruriyati	230
Eshchanova G. O., Egamberdiyeva M. K. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilishga o'rgatish orqali nutq, muloqot kompetensiyalarini shakllantirish usullari	236
Nuradilova A. D. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalari	241
Jabborova O. M. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va didaktikasining diagnostika masalalari	246
Mardonov Sh. Q. Boshlang'ich ta'lim metodikasi va samaradorligi diagnostikasi	254
Eshmanova N. N. Boshlang'ich sinflarda bayon va insho yozish klaster metodikasi mazmuni	262
Qarshiboyeva X. K., Muminov Z. Sh. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish usullari	269
Jabborova O. M., Abdujalilova M. M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy layoqatini rivojlantirish metodikasi	275
Tashpulatova D. M. Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi	279
Жансаитова Ж. Б., Таджибаев И. У. Бастауыш сынып оқушыларына арналган психологиялық-педагогикалық диагностика	287
Eshmanova N. N., Rahmonova M. Oilada bola tarbiyasida o'zaro munosabatlar tizimi pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari	293
Tojiboyeva G. R. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda "Rivoj" loyihasiga asoslangan innovatsion maktab imkoniyatlari	299



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING NUTQIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Qarshiboyeva X. K.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Muminov Z. Sh.

ChDPU talabasi

Tayanch so'zlar: ta'lim, tarbiya, o'quvchi shaxsi, tafakkur, dunyoqarash

Ключевые слова: образование, образование личност ученика, мышление, мировоззрение.

Key words: seducation, education, pupil's identity, thinking worldview.

Nutq madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini, millatimiz ma'naviy kamolotini ko'rsatib beruvchi bir ko'zgu desak aslo xato qilmagan bo'lamiz. Mamlakatimizda har tomonlama ma'naviy va ma'rifiy islohotlar davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishi deb belgilangan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari har doimgidan ham dolzarb ekanligini barchamiz yaxshi tushunib turibmiz. Respublikamizning "Davlat tili" to'g'risidagi Qonuni, yangi tahrirdagi Ta'lim to'g'risidagi Qonunida til masalalariga, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratgan.

Har qanday kasb egasi eng avval o'z ona tilining chinakam sohibi bo'lishi lozimdir. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida so'zlagan nutqida: "O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassis avvalambor, rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin"- deb ta'kidlagan edilar.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shujamiyatda yashayotgan har bir insonni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara oladigan erkin, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta va keskin sur'atlar bilan o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Inson hayotining ahamiyati, dunyo



haqidagi qarashlar o'zgarimoqda. Tasavvur va tafakkur, olamni tushunishning yangi usullari shakllanmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining faoliyatida ijodkorlik, nostandart va kreativ fikrlash jarayonlarini rivojlantirish bugungi ta'limning dolzarb masalalaridan biridir. Ularning ilmiy tasavvurlari evristika ta'limning pedagogik asosi hisoblanadi. Chunki o'quvchilarning bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yorlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ta'lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo qiladi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu borada ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim jarayonida ijodiy faoliyatini shakllantirish imkoniyatlari kengroq bo'lib hisoblanadi. Chunki boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning aqliy qobiliyati, diqqati, fikrlash darajasi faol rivojlanadi. Mazkur yoshdagi bolalarning faoliyatlari bir-biridan farq qiladi va ularning iste'dodlari ham turlicha namoyon bo'ladi. Bir qator pedagog va psixolog olimlar: A.V.Petrovskiy, V.M.Teplov, V.A.Krutetskiy, E.G'oziyev, G'.Shoumarov, O.Roziqov, B.Adizov ta'kidlashlaricha, – bu davrda o'quv faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy holati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanadi. Mazkur yoshdagi o'quvchilarning mayl va intilishlari, bilish va ijodiy faoliyatlari, iste'dodlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan-texnika, san'at va ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish uchun har bir o'quvchida ijodiy fikrlash, hayotiy masalalarga nostandart yechimlar topa olish, vaziyatlarga kreativ yondashish kabi xususiyatlarni uyg'otish muhim va zarurdir. Buning uchun o'qituvchi jamiyat taraqqiyotlaridan kelib chiqib o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, ilg'or tajribalarni izlab, o'rganib, o'z faoliyatida samarali qo'llay oladigan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim ona tili va o'qish savodxonligi darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi maqsadi nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, husnixat bilan yozish ko'nikmalarini shakllantirishni ham qamrab oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini hosil qilish, fikrlash doiralarini kengaytirish, lug'at boyliklarini oshirish, til sezgirligini tarbiyalash, bog'lanishni nutqni



o‘stirish, matn tuzish qobiliyatlarini shakllantirish bu darsliklarning asosiy g‘oyasini tashkil etadi. Ma‘lumki, Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarda bu vazifalarni amalga oshirish yo‘llari xilma-xil va juda qiziqarli qilib berilgan.

Nutq og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi. Ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgani bilan har birining o‘z xususiyati va vazifalari bor. Og‘zaki nutqda tovushlar, so‘zlar til orqali talaffuz qilinadi va ular eshitish a‘zolari orqali qabul qilinadi va dars jarayonida bolalarning lug‘at boyligi oshib boradi. Shuning uchun har bir o‘quvchini nutqini nazorat qilish, undagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab bartaraf etish yo‘llarini izlab topishga har bir pedagog mas‘uliyat bilan kirishmog‘i zarur. Chunki chiroyli so‘zlashni, savodli hamda to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon, aniq bayon etishni bilmaydigan yoki bilganini ham bayon eta olmaydigan o‘quvchi fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtira olmaydi. Chunki nutq hammada ham bir xilda rivojlanavermaydi. Nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq va ravon o‘quvchi ko‘p hollarda fikrlash doirasi kengligi, idrok qilishi teranligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu ayniqsa o‘qishga qiziqadigan kitobsevar o‘quvchilarda ko‘zga tashlanadi. Demak nutqni o‘stirishning asosiy yo‘llaridan biri bolada kitobga mehr uyg‘otishdir. Bu oiladagi muhitga va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga bevosita bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarga avvalo o‘zi sevib o‘qiydigan kitoblari haqida ko‘zlarida mehr porlagan holda qisqa-qisqa gapirib berib turishi kerak. Shu asnoda ularga ham yoshiga mos keladigan yuqori saviyali kitoblarni doimo tavsiya qilib turishi lozim. Albatta tavsiya etgan kitoblarini kimlar sotib oldi yoki kutubxonadan olib o‘qiganini so‘rab, ularni sinfdagi boshqa o‘quvchilarga o‘rnak qilib rag‘batlantirib borishi kerak. Ustozning kitobsevarligi albatta ko‘pchilik bolalarni ham shunday bo‘lishiga olib keladi. Kitobxon o‘quvchi o‘z his-tuyg‘ularini, hissiyotlarini, o‘zlashtirgan bilimlarini aniq va ravon bayon eta oladi. Ammo ba‘zi o‘quvchilar tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Bu narsa o‘quvchilarga fanlarni o‘zlashtirishda sezilarli qiyinchilik tug‘diradi. Bunday o‘quvchilar nutqini o‘stirishda logoped yordamiga tayanish kerak bo‘ladi. Ma‘lumki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuzidagi nuqsonlarni, kamchiliklarni aniqlash, sabablarini topish va o‘z vaqtida bartaraf etish choralarni ko‘rish o‘qituvchi va logopedlarga yuklanadi.

Nutq o‘stirish ongli o‘qishni, so‘zlash va yozishga o‘rgatishni, til haqida o‘quvchining yoshi va tushunchasiga mos bilim berishni, ularning lug‘at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e‘tibor va qiziqishni o‘stirishni, kitob o‘qishga muhabbatni ko‘zda tutadi. Ona tili o‘qish savodxonligi darslarida amaliy mashg‘ulotlarga keng o‘rin berish va malakalarni singdirishda qiziqarli va



jonli narsalardan, texnik vositalardan, turli o‘yin va o‘yin turidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Masalan, darslikka doir hikoyalar, ertaklar, she‘r va maqollardagi notanish so‘zlarni o‘qib berib, mazmuni tushuntiriladi.

“Kim sezgir?”, “Bu nima?”, “Nomini ayt” o‘yinlari nutq o‘stirish uchun juda samarali vositalar hisoblanadi. O‘qituvchi doskaga harflar terib so‘zlar yozadi. O‘quvchilar bir o‘qib olgach, ularning o‘rinlarini almashtirib qo‘yadi. Bunda o‘quvchining sezgirligi, topqirligi baholanib rag‘batlantiriladi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalardir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta himoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta himoyalashda o‘qilgan matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o‘ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakatlarini, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar.

O‘qituvchining savoli asar qahramoni nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishiga, o‘zaro bog‘liqlikni yoritishga yo‘naltirilishi lozim. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o‘zaro bog‘laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular haqida muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asarda qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba‘zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi lozim. Bu savollar bolani o‘ylashga, fikrlashga majbur etadigan, asar qahramonlarining xatti-harakati, voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘quvchi asardagi voqea-hodisalarni yaxshi tasavvur eta olsa hikoyaning mazmunini shunchalik chuqur tushunadi va asarni shunchalik yaxshi qayta hikoya qilib bera oladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga

aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan soʻz (soʻz birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega boʻladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. “Nutq tafakkur bilan chambarchas bogʻlangandir. Nutq boʻlmasa tafakkur ham boʻlmaydi, til materiali boʻlmasa, fikrni ifodalab berib boʻlmaydi” Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy boʻlishini taʼminlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lugʻat boyligini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni oʻstirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir.

Nutq tafakkur jarayonini oʻrganishning muhim vositasi boʻlib xizmat qiladi. Nutqdan oʻquvchi fikriy rivojining asosiy oʻlchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. Oʻquvchining barcha predmetlardan materialni oʻzlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola oʻz nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta himoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi. Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib boʻlmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi, fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning oʻsishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashadi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish boshqa oʻquv predmetlaridan oʻtkaziladigan mashgʻulotlar bilan ham uzviy ravishda bogʻlanadi.

Boshlangʻich sinfdagi boshqa darslarda ham oʻquvchilar nutqi xilma-xil soʻzlar bilan boyitiladi. Kuzatish va koʻrgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Oʻqituvchi fan xususiyatlarini oʻzlashtirishga koʻmaklashish bilan bogʻliq holda, oʻquvchilar tafakkurini, nutqini oʻstiradi. Oʻqituvchi mavzu mazmunigagina emas, balki shu mazmunni bolalar nutqida toʻgʻri shakllantirilishiga ham eʼtibor bersa, bu darslarda oʻquvchilar egallaydigan bilim haqiqiy, ular nutqining oʻsishi uchun samarali vosita boʻladi. “Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlash, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yoʻlini tushuntirish koʻnikmasi ustida ishlash oʻquvchilarda qayta himoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini oʻstiradi”.

Xulosa qilib aytganda oʻquvchilar nutqini oʻstirishda oʻqituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. Oʻqituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashgʻulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, taʼsirli soʻzlashi, shuningdek, har doim oʻquvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan



holda yozishi zarur. Bu bilan o'quvchilarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi. Shu bilan birga nutq o'stiruvchi didaktik o'yinlardan samarali foydalanishi kera.

Adabiyotlar:

1. Roziqov O, Og'ayev S, Mahmudov M, Adizov B "Ta'lim texnologiyasi"-T.O'qituvchi, 2018.
2. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardayev A, "Ta'limda innovatsion texnologiyalar"-T 2014
3. Shoyaqubov Sh, va boshq. "Interfaol ta'lim usullari"-T: 2012-135 b.
4. G'afforova T "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar"-T 2011.- 175 b

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini bilim olishga motavatsiyasini oshirishda didaktik o'yinlarning o'rni, ularning ta'limiy, tarbiyaviy vazifalari, ta'lim oluvchining shaxsiga ta'siri, tafakkurini o'stirishi, dunyoqarashini kengaytirishidagi ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются роль дидактических игр в формировании мотивов в начальном образовании воспитательные функции дидактических игр, влияние на личность студента, развитие мышления, важность дидактических игр в расширении их мировоззрения, мнения и комментарии приведены в книге.

SUMMARY

This article discusses the role of didactic games in the formation of motives in primary education, the educational functions of didactic games, the impact on the the student's personalite, the development of thinking, the importance of didactic games in expanding theirworldview. Opinions and commentsare given in the book.